

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA HAYVONLAR VA O'SIMLIKLAR NOMLARI MAVJUD BO'LGAN PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING GRAMMATIK TAHLILI

Raximova Malika Sultonovna

Urganch Davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida hayvonlar va o'simliklar nomlari qo'llanilgan frazeologik va paremiologik birliklarning grammatik tahlili ochib berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, paremiologiya, parema, grammatik tahlil.

Hayvonot va o'simlik nomlari mavjud bo'lgan paremiologik birliklar insonlar hayotida muloqotning ajralmas qisimlaridan biridir. Har xil turdagi daraxtlar va o'simliklar ajoyib xususiyatlarga ega. Nemis va o'zbek tillarining paremiologik lug'ati ham ko'plab allegoriyalarni, belgilarni o'zida mujassamlashtiradi. Inson mavjudligi tabiat bilan uzviy bog'liqdir shu sababli ham insonlar og'zaki va yozma muloqot jarayonida maqollardan albatta foydalanadi. Paremiologik birliklarni grammatik jihatdan tahlil qilish ularning gap bo'laklari, grammatik qonun qoidalar asosida tahlil qilish tushiniladi. Bunday paremiologik birliklarni quyidagi Grammatik qoidalar asosida shakllangan birliklarga ajratishimiz mumkin, ya'ni;

- **Adjektiv+(wie) + Pflanzename + sein -**

Jemand ist stark wie ein Baum, schön wie eine Rose - daraxtdek kuchli, guldek go'zal;

keusch wie eine Lilie, empfindlich, zart wie eine Mimose - nilufardek pokiza, sezgir, mimoza kabi nozik;

blau wie ein Veilchen - binafsha kabi ko'k;

lang wie eine Bohnstange – loviya kabi uzun;

dumm oder grob wie Bohnenstroh - loviya somoni kabi ahmoq yoki qo'pol;

gesund wie eine Eiche – emanday sog'lom;

schlank wie eine Gerte – qamchidek nozik;

dürr wie eine Hopfenstange – nozik, ozg'in

rot wie eine Tomate - pomidor kabi qizil

- **Verb + (wie) + Pflanzename**
- **Präposition + Pflanzename + Verb -**

Man kann mit einem netten oder saubereren Früchtchen – toza va chiroyli mevadek

mit jungem oder höherem Gemüse - yangi uzilgan sabzavotdek;



mit einem Mauerblümchen oder einer Kaffeetante bekannt sein – devor guliday yoki kofedonasiday ma'lum;

- **mehrgliedrige PE und Sprichwörter**

Paremiologik birliklar tarkibidagi hayvon va o'simliklar nomlari ajralmas qism hisoblanadi va uni boshqa nom bilan almashtirib ham bo'lmaydi. Shu sababli uning ma'nosi va grammatik tuzilishi barcha uchun bir xil bo'ladi. Misol uchun, nemis tilida so'zlashuvchilar uchun *olma daraxtini (Apfelbaum)* qadimgi do'st deb hisoblash mumkin, uning mevalari she'riyat va afsonalarda katta ahamiyatga ega. Olma daraxti baxt va omad belgisi hisoblanadi.

Tarkibida hayvon nomlari kelgan FB va paremiologik birliklarda tuzilish jihatdan qisqa va aniq ma'no tushiniladi, masalan, *Kaufen Sie die Katze im Sack, das schwarze Schaf sein* Semantikasini keltirib chiqarish uchun nemis o'lkalarida qora qo'y ko'p ham uchramasligini bilish kerak. O'zbek tilida bu (suhbatdan chetda qolmoq) ma'nosini bildiradi. Bunda o'ziga o'xshamagan kishilarni davrasiga qo'shmaslik ma'nosi ham yetadi. Semantik jihatdan hayvonlarga yo'naltirilgan, ammo metaforik tarzda insonni nazarda tutuvchi bunday o'xshatishlarni matnda ko'plab keltirishim mumkin. Hayvon nomlari keltirilgan paremiologik birliklarni ham grammatik jihatdan

- **Adjektiv+(wie) + Tiername + sein** – *wenn es dem Esel zu wohl wird, geht er aufs Eis* - *eshak juda qulay bo'lganda, u muzga tushadi.*
- **Verb + (wie) + Tiername** – *Angeben wie eine Tüte voll Mücken* - *Pashsha to'la qopdek o'zini ko'rsatish;*

aufpassen wie ein Schießhund - *it kabi ehtiyotkor bo'lmoq*

Ein Gedächtnis wie ein Elefant haben - *fil kabi xotiraga ega*

Sei kein Frosch – *o'zbek tilidagi eshshak bo'lmoq iborasiga to'g'ri keladi.*

- **Präposition + Tiername + Verb** – *Auf dem hohen Ross sitzen* - *Baland otga o'tir;*

auf den Hund kommen - *itga minmoq*

auf der Bärenhaut liegen - *ayiq terisiga yopinmoq*

aufs falsche Pferd setzen – *noto'g'ri otga minmoq*

aufs richtige Pferd setzen - *to'g'ri otga o'tirmoq*

aus einer Mücke einen Elefant machen *bu maqol o'zbek tilidagi sinonimi pashshadan fil yasamoq iborasiga to'g'ri keladi.*

- **mehrgliedrige PE und Sprichwörter** – *auch ein blindes Huhn findet mal ein Korn* – *ko'r tovuq ham donini topadi;* (*har kimning rizqi bor*)

Mein Name ist Hase, ich weiß von nichts – *mening ismim quyon, men hech narsani bilmayman*

- **Substantive + Tiername + Verb** -

Eine Eselsbrücke bauen – *eshshak ko'prigi qurmoq*

Affen bleiben Affen, auch wenn man sie in Sammet kleidet o'zbek tiliga so'zma so'z tarjima qilinsa, *Maymun maymunligicha qoladi hattoki shohona kiyinsa ham* o'zbek tilidagi sinonim maqoli *It bo'lur eshshak bo'lur aslo bo'lmas odamiy*

His-tuyg'ular, udum va an'analar asrlar davomida pardoatlanadi hamda maqol, matal va idiomalarda shakllanadi. Badiiy asarlarda maqol, matal va idiomalarni ko'plab uchratishimiz mumkin, ularni o'z navbatida tipik frazeologik birliklar deb hisoblash mumkin. Bular tabiiyki, tarjimada eng ko'p noqulayliklarni keltirib chiqaradi. "Frazeologik birliklar tilda tarkibiy terminlar sifatida, so'zlardagi tushunchalarning ifodasi tarzida, so'z birikmalarining ko'chma ma'noda qo'llanishi, yuksak emotsionallik kasb etib paydo bo'ladi. Shu bois ular ifodali va ta'sirchan bo'ladi", - deya tavsiflaydi yirik tilshunos E.M.Galkina – Fedoruk, frazeologizmlarning paydo bo'lish tabiati haqida.



Frazeologizmlarda xalqning boy tarixiy tajribasi, uning zukkoligi, xalqning barcha o'ziga xosliklari, uning mehnat faoliyati bilan bog'liq tarzda o'z ifodasini topgan. A.N.Sobolev o'zining "Obrazni obraz orqali o'girish" nomli maqolasida "Frazeologik guruh favquloddagi so'z birikmalari boshqa so'zlardan farqlanib turadi. U o'zining ijtimoiy va milliy qiyofasiga ega" deya uqtiradi. "Frazeologizmlar o'z ildizlari bilan xalq tili, tarixiga borib taqaladi. Ular til tizimiga mustahkam kirib, tilga milliy kolorit va o'ziga xoslik baxsh etadi"¹

Quyida nemis tilidagi (*Hund/it, Hase/quyon, Bär/ayiq, Wolf/bo'ri, Schlange/ilon*) kabi hayvonlar timsoli qo'llangan maqollarga diqqatimizni qaratamiz.

- *Hund / it. Wie ein Hund leben*

Itdek yashamoq ya'ni nochor va achinarli holda hayot kechirish

- *wie Hund und Katze leben*

it va mushuk bo'lib yashamoq ya'ni bir-biriga qarshi, dushmanlardek yashash

- *Hase / quyon. Ängstlich wie ein Hase*

Quyondek qo'rqqoq ya'ni har doim biror narsadan hadiksirash, o'ta qurqqoqlik

- *ein alter Hase sein*

qari quyon bo'lmoq izoh: tajribali va ko'pni ko'rgan inson bo'lish, dono kishi

- *Bär / ayiq. stark wie ein Bär*

Ayiqde kkuchli izoh: o'ta kuchli bo'lmoq, ho'kizdek kuchi bo'lmoq

- *jmdm. Einen Bären dienst erweisen*

kimgadir ayiqdek ishlashni isbotlamoq izoh: juda qattiq ishlash, juda kuchli ekanligini ko'rsatib qo'yish

- *Wolf / bo'ri. Hungrig wie ein Wolf*

bo'ridek och qolmoq izoh: juda ham och bo'lmoq, kosani yegudek bo'lish

- *mit den Wölfen heulen*

bo'rilar bilan qo'shilib uvillamoq ya'ni avzoyi buzilmoq, to'nini teskari kiyib olish, tajavvuz

- *Schlange / ilon. Eine Schlange am Busen nähren*

qo'ynida ilon boqmoq izoh: do'st bilgani dushman bo'lib chiqmoq, ayyorlik

Keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar o'rtasida o'zaro yaqinlik va uyg'unlik mavjud. Chunki o'zbek tili frazeologiyasi va maqollarida ham aynan it - nochorlik/hokisorlik, quyon-qo'rqqoqlik, ayiq-kuch, bo'ri-qurquv / tajovvuzkorlik va ilon-ikkiyuzlamachilik/ yovuzlik ramzi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Fleischer Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache 1997
2. Berdiyurov H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug'ati, T., 1984
3. Rahimova Z. Frazema va parema munosabati masalasi\\An'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –No4. –Andijon. 2014
4. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. – Toshkent, 1970
5. Raxmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Universitet, Toshkent. 2006
6. Бинович Л.Э. Немецко-русский фразеологический словарь М., 1956

¹ Бинович Л.Э. Немецко-русский фразеологический словарь М., 1956. стр. 4.

